
Qo'shtepa tumanida paxta yig'im-terimi qizg'in pallada

Tumanimiz paxta dalalarida shu kunlarda yig'im-terim avj pallasiga kirdi. Barcha fermer xo'jaliklari dalasida paxta terimi uyushqoqlik bilan olib borilayapti. Oppoq paxta xirmonlari kun sayin osmonga bo'y cho'zayapti. Qo'shtepaliklar ham bir yoqadan bosh chiqarib, g'alaba marrasi sari dadil intilmoqdalar.

Shu kunlarda mahallalardagi mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolar, uy bekalari, nuroniylar hamda ko'ngillilar paxta yig'im-terim hasharida faol ishtirok etmoqdalar. "Xormanglar!"ga chiqqan mahallalarning mas'ullari tomonidan esa ilg'or hasharchi va terimchilar esdalik sovg'alari hamda yog' mahsuloti bilan rag'batlantirib borilmoqda.









2024-09-26 13:36:09